

**KONFERENSIYALAR.COM**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**AVGUST, 2025**

**ELEKTRON NASHR:**

<https://konferensiyalar.com>



# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

**TOSHKENT-2025**

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 7-avgust

**Mas'ul muharrir:**  
Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Scienceproblems team, 2025-yil  
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### TEXNIKA FANLARI

*Bozorboyev Abbasjon, Ravshanov Shavkat*

*KUNJUT O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI VA UNING HOSILINI YIG'ISHTIRIB OLISHDAGI MUAMMOLARI*..... 6-9

*Iskandarov Orifxon*

*TIRIKOTAJ MATOLARIDA SIFAT NAZORATI*..... 10-12

*Odinayev Mirjalol*

*"AI-TRANSLATE" TEXNIK HUJJATLARNI SUN'YI INTELLEKT ORQALI AVTOMATIK TARJIMA*

*QILISH VA HUQUQIY MASLAHATLAR AXBOROT TIZIMI – TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA*

*SOLISHDA INNOVATSION YECHIM* ..... 13-18

### QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

*Karimov Nurbek*

*TURLI USULDA YERGA ISHLOV BERISHNI SOYA PARVARISHLANGAN MAYDON*

*TUPROG'INING SUV O'TKAZUVCHANLIGIGA TA'SIRI* ..... 19-22

### TARIX FANLARI

*Bobojonova Zuxra*

*TEMURIY MALIKALARNING HUKMDORLAR HAYOTIDAGI O'RNI*..... 23-25

*Xalilov Baxodir*

*ZAMONAVIY KUTUBXONALARNING MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDAGI O'RNI: NAVOIY*

*VILOYATI MISOLIDA*..... 26-31

*Xoliqova Ra'noxon*

*"MARKAZIY OSIYODA SUN'YI INTELLEKT TUFAYLI AYOLLAR IMKONIYATLARI: STEM TA'LIMI,*

*GENDER TENGLIGI VA IQTISODIY FAOLLIK SSENARIYLARI"* ..... 32-34

*Xasanova Nargiza*

*YANGI DAVR: ILM-FANI INNOVASIYALARIDA AYOL-QIZLAR ISHTIROKINING DOLZARB*

*AHAMIYATI*..... 35-38

### IQTISODIYOT FANLARI

*Salomov Temurbek*

*THE ROLE OF PILGRIMAGE TOURISM IN ENHANCING THE SERVICE SECTOR:*

*A CASE STUDY OF UZBEKISTAN*..... 39-43

*Raxmanov Ulugbek*

*TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HISOBVARAQLAR REJASIGA MUVOFIQ*

*TAHLILIIY AVTOMATLASHTIRILGAN NAZORAT MEXANIZMINI YARATISH* ..... 44-45

*Toshtemirov To'liqin*

*KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING SUN'YI BO'LINISH MUAMMOLARI*..... 46-49

*Mansurova Sayyora*

*INNOVATSION PROPTECH-PLATFORMALAR VA*

*ULARNING KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIRI* ..... 50-53

*Rajabov Alibek*

*INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKKLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARIH*..... 54-57

*Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda*

*EFFECTS OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT ENVIRONMENT: LESSONS FROM*

*GLOBAL EXPERIENCES*..... 58-60

## **FALSAFA FANLARI**

*Abdullayev Sodiqjon*

*MILLIY O'ZLIKNI TIKLASH JARAYONIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA SALOMATLIK*

*QADRIYATLARI..... 61-66*

*Gafurova Munajat*

*O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDAGI JAMIYAT VA*

*DAVLAT O'RTASIDAGI DIALEKTIK MUNOSABATLARI..... 67-70*

*Davronov Bahodir*

*SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROT MUHITINING GUMANITAR QADRIYATLARGA*

*NISBATAN ASIMMETRIK MUNOSABATI..... 71-76*

*Latipov Sardor*

*KORRUPSIYANING TARIXAN SHAKLLANISHI VA TURLARI..... 77-81*

## **FILOLOGIYA FANLARI**

*Xoliyorova To'lg'anoy*

*O'ZBEK TILI MILLIY KORPUSINING TA'LIM VA ILMIY TADQIQOTLARDAGI O'RNI..... 82-83*

*Ro'ziyev Temur*

*ADABIY-ESTETIK QARASHDA TAFAKKUR VA TUYG'UNING O'RNI..... 84-92*

*Gulmuradova Sobira*

*"XUSHKELDI" DOSTONI MATNI TARKIBIDAGI ETNOGRAFIK MANTALARNING MILLIY –*

*MADANIY XUSUSIYATLARI..... 93-95*

*Qosimova Malika*

*SINXRON TARJIMADA MASHINA TARJIMASINING AFZALLIKLARI XUSUSIDA..... 96-99*

*Bahromjonova Shahnoza*

*HODI ZARIF VA YANAGITA KUNIO ILMIY MEROSI:*

*FOLKLORSHUNOSLIKDA QIYOSIY TAHLIL..... 100-102*

*Ayimbetova Damekhan*

*ZAMONAVIY INGLIZ SHE'RIYATIDA HAYVONLARNI*

*TASVIRLASHNING O'ZIGA XOSLIKLARI..... 104-107*

## **YURIDIK FANLARI**

*Komilov Avazbek*

*INTIZOMIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QAROR,*

*UNING SHAKLI VA MAZMUNIGA NISBATAN TALABLAR..... 108-110*

*Shamsitdinova Manzura*

*TEACHING LISTENING COMPREHENSION..... 111-112*

*Xadjiyev Azizbek*

*"IJTIMOIY ADOLAT" TAMOIYILINING XALQARO QONUNCHILIK*

*AMALIYOTIDA YORITILISHI..... 113-116*

*Уктамов Комрон*

*РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОД ПЕРВЫМ ВОДНЫМ КОДЕКСОМ*

*РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... 117-123*

|                                                                                             |         |
|---------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| Исмоилов Бехрузбек                                                                          |         |
| ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН..... | 124-129 |

## **PEDAGOGIKA FANLARI**

|                                                                                                                                                         |         |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| Qo'shmurodova Aziza                                                                                                                                     |         |
| BOSHLANG'ICH SINFLARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM METODLARINI QO'LLASH..... | 130-133 |

|                                                                            |         |
|----------------------------------------------------------------------------|---------|
| Mamatqosimova Nodira                                                       |         |
| SSENARIY YARATISHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI..... | 134-137 |

|                                                                                         |         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| Sattoriy Shohruh                                                                        |         |
| TA'LIM SIFATI USTIDAN NAZORAT MEXANIZMLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH..... | 138-141 |

|                                                                                                                                               |         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| Jabborova Umida                                                                                                                               |         |
| TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEXNIK SAVODXONLIGINI ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI..... | 142-144 |

|                                                                                                                                              |         |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| Xujanazarova Nozima                                                                                                                          |         |
| RAQAMLI PLATFORMALARDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISHGA YO'NALTIRILGAN INTERAKTIV O'QUV TOPSHIRIQLARI VA KEYS-STADIYALARNI YARATISH..... | 145-148 |

|                                                                                                   |         |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| Aripjanova Dinora                                                                                 |         |
| RAQOBATBARDOSH RAHBAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARALI MODELI..... | 149-151 |

|                                                                                                               |         |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| Dosanova Gulbanu                                                                                              |         |
| OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI..... | 152-154 |

|                                                                                             |         |
|---------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| Isokov Ravshanbek                                                                           |         |
| INNOVATIVE APPROACHES TO FOSTERING HISTORICAL MEMORY AND CULTURAL IDENTITY IN STUDENTS..... | 155-160 |

## **TIBBIYOT FANLARI**

|                                                       |         |
|-------------------------------------------------------|---------|
| Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza           |         |
| XOSHIMOTO TIREOIDITINING KECHISHIDA RUXNING O'RN..... | 161-163 |

|                                                                                |         |
|--------------------------------------------------------------------------------|---------|
| Nabiyeva Umida                                                                 |         |
| GIPERTONIYANING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TAMOIYILLARI..... | 164-166 |

## **PSIXOLOGIYA FANLARI**

|                                                                                                                           |         |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| Polvanov Rasulbek                                                                                                         |         |
| INTERNET QARAMLIGI VA SHAXSNING IJTIMOY MOSLASHUVIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI KONTEKSTIDASH..... | 167-172 |

|                                                                                  |         |
|----------------------------------------------------------------------------------|---------|
| Усманова Лилия                                                                   |         |
| ТИПОЛОГИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ТРАНСФОРМАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ..... | 173-176 |

## INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKKLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Rajabov Alibek**

Ma'mun-Universiteti NTM "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, PhD

Qoraqalpoq davlat universiteti tadqiqotchisi

ORCID: 0000-0002-5252-6456

E-mail: [alibek.rajabov@gmail.com](mailto:alibek.rajabov@gmail.com)

Tel: +998 97 221 44 92

Xorazm, O'zbekiston

**Annotatsiya.** Hozirgi global iqtisodiyotda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish mamlakatlarning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Ushbu maqola innovatsion iqtisodiyotning nazariy asoslarini Jozef Shumpeterning "kreativ yo'q qilish" nazariyasi, endogen o'sish modellari (Paul Romer) va evolyutsion iqtisodiyot (Nelson va Vinter) asosida tahlil qiladi. Sistemalik adabiyotlar sharhi (PRISMA protokoli bo'yicha) va bibliometrik tahlil (Scopus va Web of Science bazalaridan 2020-2025 yillardagi maqolalar) yordamida raqamli transformatsiya, barqaror innovatsiyalar va AI texnologiyalarining rolini o'rganadi.

**Kalit so'zlar:** innovatsion iqtisodiyot, nazariy asoslar, kreativ yo'q qilish, endogen o'sish, raqamli transformatsiya, barqaror innovatsiyalar, innovatsiya to'kilmalari, evolyutsion iqtisodiyot.

## THEORETICAL FOUNDATIONS OF SHAPING AN INNOVATIVE ECONOMY

**Rajabov Alibek**

Researcher at Karakalpak State University

"Mamun University" Associate Professor of the Department of Economics, PhD

**Annotation.** In the contemporary global economy, shaping an innovative economy serves as a key mechanism for ensuring sustainable development and competitiveness of nations. This article analyzes the theoretical foundations of innovative economy formation based on Joseph Schumpeter's "creative destruction" theory, endogenous growth models (Paul Romer), and evolutionary economics (Nelson and Winter). Employing a systematic literature review (following PRISMA protocol) and bibliometric analysis (from Scopus and Web of Science databases, 2020-2025 articles), it examines the role of digital transformation, sustainable innovations, and AI technologies.

**Key words:** innovative economy, theoretical foundations, creative destruction, endogenous growth, digital transformation, sustainable innovations, innovation spillovers, evolutionary economics.

Hozirgi globalizatsiya va texnologik o'zgarishlar sharoitida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish mamlakatlarning barqaror iqtisodiy o'sishi, raqobatbardoshligi va jamiyat farovonligini ta'minlashning asosiy mexanizmi sifatida e'tirof etilmoqda. So'nggi yillarda, ayniqsa sun'iy intellekt (AI), toza energiya va raqamli transformatsiya kabi tendensiyalar innovatsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirmoqda, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi bozorlarni yaratish imkonini beradi [1]. Ushbu jarayonlar nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilaydi, balki iqlim o'zgarishi va resurslar tanqisligi kabi global muammolarni hal etishda ham muhim rol o'ynaydi.

Innovatsion iqtisodiyotning nazariy asoslari Jozef Shumpeterning "kreativ yo'q qilish" (creative destruction) nazariyasiga asoslanadi, bu nazariyaga ko'ra, innovatsiyalar eski iqtisodiy tuzilmalarni yangi, samaraliroq tuzilmalar bilan almashtirish orqali iqtisodiy sikllarni va rivojlanishni ta'minlaydi [2]. Shumpeter innovatsiyani besh asosiy shaklda tasvirlaydi: yangi

mahsulotlar, ishlab chiqarish usullari, bozorlar, xom ashyo manbalari va sanoat tashkilotlari, bu esa tadbirkorlik va texnologik o'zgarishlarni iqtisodiy o'sishning markaziga qo'yadi. Ushbu nazariya evolyutsion iqtisodiyot (Nelson va Vinter) va institutsional iqtisodiyot (Veblen) tomonidan rivojlantirilgan bo'lib, innovatsiyalarni tabiiy tanlov jarayoniga o'xshatib, firmalarning raqobatbardoshligini ta'kidlaydi [3].

Zamonaviy rivojlanishlarda yangi o'sish nazariyasi (endogen o'sish, Paul Romer) muhim o'rin tutadi, bu nazariyaga ko'ra, g'oyalar va bilimlar iqtisodiy o'sishning asosiy katalizatori bo'lib, tadqiqot va rivojlantirish (R&D) investitsiyalari orqali bilim to'kilmalari (spillovers) hosil qiladi va umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Raqamli iqtisodiyot va ochiq innovatsiyalar modellari (masalan, IBM tadqiqotlari) ham zamonaviy tendensiyalarni aks ettirib, innovatsiyalarni yopiq R&D dan global hamkorlik va tarmoqlar orqali amalga oshirishni ta'kidlaydi, bu esa mintaqaviy klasterlar va inson kapitalini rivojlantirishga urg'u beradi [4]. Hozirgi zamonaviy tendensiyalarda AI agentlari, avtonom tizimlar va barqaror texnologiyalar (masalan, yashil energiya initsiativalari) iqtisodiy o'sishni tezlashtirib, mamlakatlar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirmoqda, ammo bu jarayonlar institutsional o'zgarishlarni va inson-mashina hamkorligini talab etadi.

Ushbu ilmiy maqola innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish uchun nazariy va empirik yondashuvlarni birlashtirgan holda o'tkazilgan. Tadqiqotning asosiy usuli sistematik adabiyotlar sharhi bo'lib, bu Scopus, Web of Science va PubMed kabi xalqaro ilmiy bazalardagi 2020–2025 yillar oralig'ida nashr etilgan maqolalariga e'tibor qaratildi. Qidiruv jarayonida quyidagi kalit so'zlar ishlatildi: "innovative economy", "theoretical foundations", "technological innovation", "digital economy".

So'nggi besh yil ichida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning nazariy asoslari bo'yicha nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilgan tadqiqotlar texnologik innovatsiyalar, raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanishning iqtisodiy o'sishdagi rolini ta'kidlaydi. Ushbu adabiyotlar Jozef Shumpeterning "kreativ yo'q qilish" nazariyasiga asoslanib, innovatsiyalarni iqtisodiy dinamika va raqobatbardoshlikning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rib chiqadi. Masalan, 2025-yilda chop etilgan tadqiqotda [5] texnologik innovatsiyalar (AI, IoT, blockchain) barqaror raqobatbardoshlikni ta'minlashda asosiy determinant sifatida belgilangan bo'lib, bu jarayonlar resurslar samaradorligini oshirish va yangi bozorlarni yaratish orqali amalga oshiriladi. Ushbu tadqiqot Resource-Based View (RBV) va Dynamic Capabilities Theory nazariyalariga asoslanib, innovatsiyalarni firmalarning strategik resurslari sifatida tahlil qiladi, bu esa evolyutsion iqtisodiyot tamoyillarini kengaytiradi.

Raqamli iqtisodiyotning korxonalar innovatsiya xatti-harakatlariga ta'siri bo'yicha 2023-yilda o'tkazilgan bibliometrik tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar ma'lumot almashinuvini tezlashtirib, resurslar aglomeratsiyasini va innovatsiya tarmoqlarini kuchaytiradi. Tadqiqot Shumpeterning innovatsiya nazariyasiga va yangi o'sish nazariyasiga (Romer, 1990) asoslanib, raqamli iqtisodiyotni korxonalar innovatsiyasining asosiy katalizatori sifatida ko'rsatadi, bu esa fintech, IoT va iste'molchilar ko-kreatsiyasi kabi sohalarda yangi tadqiqot yo'nalishlarini ochadi. Shuningdek, 2023-yilda chop etilgan mazkur tadqiqot ishida raqamli iqtisodiyotning korxonalar innovatsiyasiga ta'siri 2010-2020 yillardagi 11 yillik tadqiqotlar asosida tahlil qilingan bo'lib, raqamli transformatsiya korxonalar uchun yangi biznes modellarini va global qiymat zanjirlariga integratsiyani ta'minlaydi [6].

Barqaror innovatsiya tizimlari va iqtisodiy barqarorlik bo'yicha 2023-yilda o'tkazilgan panel ma'lumotlar tahlili (2011-2021 yillar, 12 mamlakat) shuni ko'rsatadiki, innovatsiya inputlari (inson kapitali, tadqiqotlar, infratuzilma) va outputlari (bilim va texnologiya chiqishi) GDP o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa COVID-19 pandemiyasi sharoitida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [7]. Ushbu tadqiqot Shumpeterning innovatsiya nazariyasiga asoslanib, Sustainability-Oriented Innovation System (SOIS) kontseptsiyasini taklif etadi, bu esa an'anaviy innovatsiya tizimlarini ekologik va ijtimoiy jihatlariga kengaytiradi.

2023-yilda chop etilgan boshqa bir tadqiqotda tsirkulyar iqtisodiyotni texnologiyalar (blockchain, AI) orqali inqilobiy o'zgartirish masalalari ko'rib chiqilgan bo'lib, bu texnologiyalar resurslar samaradorligini va ta'minot zanjirlarini optimallashtirish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlaydi [8]. Tadqiqot Industry 4.0 va tsirkulyar iqtisodiyot nazariyalarini integratsiya qilib, yangi biznes modellarini va mahsulot hayot tsiklini boshqarishni taklif etadi, ammo malaka kamchiliklari va regulyatorlik moslashuvlar kabi muammolarni ta'kidlaydi.

O'sish, innovatsiya va tadbirkorlik nazariyalari bo'yicha 2023-yilda nashr etilgan kitob bobida bilimga asoslangan o'sish modellari tanqid qilinib, tadbirkorlik va raqobat innovatsiyalarni iqtisodiy qiymatga aylantirishda asosiy faktor sifatida ko'rsatilgan [9]. Ushbu ish Shumpeterning merosiga asoslanib, evolyutsion modellarni taklif etadi, bu esa institutsional va raqobat omillarini innovatsion iqtisodiyotning nazariy asosiga kiritadi.

AQShning raqamli iqtisodiyotdagi ustunligi bo'yicha 2025-yilda chop etilgan tadqiqot Policy-Coordination-Talent (PCT) tahlil ramkasini taklif etib, siyosat rahbarligi, muvofiqlashtirish mexanizmlari va iste'dodlar strategiyasini integratsiya qiladi [10]. Ushbu tadqiqot institutsional iqtisodiyot va boshqaruv nazariyalariga asoslanib, raqamli iqtisodiyotni kompleks tizim sifatida tahlil qiladi, bu esa O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Tadqiqot natijalari innovatsion iqtisodiyotning nazariy asoslarini zamonaviy kontekstda tasdiqlaydi, xususan, raqamli transformatsiya va barqaror texnologiyalarning rolini ko'rsatib, Shumpeterning nazariyasini kengaytiradi. Masalan, raqamli iqtisodiyotning korxonalar innovatsiyasiga ta'siri bibliometrik tahlilda aniqlanganidek, dinamik qobiliyatlar nazariyasiga (digital orientation va willingness to change) asoslangan bo'lib, bu firmalarning moslashuvchanligini oshiradi, ammo rivojlanayotgan bozorlarda malaka kamchiliklari innovatsiya to'kilmalarini (innovatsion spillovers) cheklaydi. Ushbu natijalar avvalgi adabiyotlar sharhi bilan mos keladi, chunki ular endogen o'sish modellari orqali bilim to'kilmalarini ta'kidlaydi, lekin empirik tahlilda aniqlanganidek, AI innovatsiyalari iqtisodiy o'sishni tezlashtirsa-da, ijtimoiy farovonlikka ta'siri noaniq qolmoqda.

Tadqiqot natijalarini muhokama qilishda cheklovlarini e'tiborga olish zarur: tadqiqot asosan ingliz tilidagi jurnallarga asoslangan bo'lib, mintaqaviy kontekstlar (masalan, O'zbekiston) uchun empirik ma'lumotlar kamchiligi mavjud, bu natijalarning umumlashtirilishini cheklaydi. Bundan tashqari, bibliometrik tahlil faqat chop etilgan ishlarga asoslangan, bu esa nashr qilinmagan adabiyotlarni hisobga olmaydi. Ushbu cheklovlar kelgusidagi tadqiqotlarda mintaqaviy case-studies va longitudinal tahlillarni talab etadi. Natijalar nazariy jihatdan hissa qo'shib, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda institutsional va texnologik omillarning integratsiyasini taklif etadi, ammo amaliy qo'llashda siyosat islohotlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning nazariy asoslari Shumpeter, Romer va evolyutsion modellarga asoslangan bo'lib, raqamli transformatsiya va barqaror texnologiyalar orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalar GDP o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ammo rivojlanayotgan mamlakatlarda institutsional qo'llab-quvvatlash va inson kapitalini rivojlantirish muhimdir. O'zbekiston uchun tavsiyalar: R&D investitsiyalarini oshirish, raqamli infratuzilmani takomillashtirish va global innovatsiya tarmoqlariga integratsiya qilish. Kelgusidagi tadqiqotlar AI va sirkulyar iqtisodiyotning mintaqaviy ta'sirini empirik jihatdan o'rganishga qaratilishi kerak. Ushbu ish innovatsion iqtisodiyotning nazariy va amaliy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. World Economic Forum. (2025). Top 10 Emerging Technologies of 2025. Frontiers va World Economic Forum. Link: <https://www.weforum.org/publications/top-10-emerging-technologies-of-2025/digest/>
2. Kouam, H. and Kingsley, K.M. (2023) Development of Innovation in Economics. Open Access Library Journal, 10: e10236. <https://doi.org/10.4236/oalib.1110236>
3. Emami Langroodi, F. (2021). Schumpeter's Theory of Economic Development: a study of the creative destruction and entrepreneurship effects on the economic growth. *Journal of Insurance and Financial Management*, 4(3). <https://dx.doi.org/10.2139/ssrn.3153744>
4. Chen, Z., & Xing, R. (2025). Digital economy, green innovation and high-quality economic development. *International Review of Economics & Finance*, 99, 104029. <https://doi.org/10.1016/j.iref.2025.104029>
5. Hamdouna, M., & Khmelyarchuk, M. (2025). Technological Innovations Shaping Sustainable Competitiveness – A Systematic Review. *Sustainability*, 17(5), 1953. <https://doi.org/10.3390/su17051953>
6. Yu, W., Zhang, L., & Yang, C. (2023). The impact of the digital economy on enterprise innovation behavior: Based on CiteSpace knowledge graph analysis. *Frontiers in Psychology*, 14, 1031294. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2023.1031294>
7. Manzoor, F., Wei, L., Subhan, Q. A., & Siraj, M. (2023). Sustainability-oriented innovation system and economic stability of the innovative countries. *Frontiers in Public Health*, 11, 1138034. <https://doi.org/10.3389/fpubh.2023.1138034>
8. Sanchez-Garcia, E., Martinez-Falco, J., Marco-Lajara, B., & Manresa-Marhuenda, E. (2024). Revolutionizing the circular economy through new technologies: A new era of sustainable progress. *Environmental Technology & Innovation*, 33, 103509. <https://doi.org/10.1016/j.eti.2023.103509>
9. Braunerhjelm, P., Henrekson, M. (2024). Theories of Growth, Innovation, and Entrepreneurship. In: *Unleashing Society's Innovative Capacity. International Studies in Entrepreneurship*, vol 55. Springer, Cham. [https://doi.org/10.1007/978-3-031-42756-5\\_2](https://doi.org/10.1007/978-3-031-42756-5_2)
10. Shan, S., Li, Y., Su, J., Yang, Y., Wang, Y., & Wang, Z. (2025). Why Does the US Dominate the Digital Economy? A Strategic Analysis Based on the Policy–Coordination–Talent Framework and the Policy Implications for China. *Systems*, 13(5), 392. <https://doi.org/10.3390/systems13050392>

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**  
**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**  
2025-yil, avgust

**Mas'ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-  
jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 7-avgust

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Science problems team, 2025-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.